


MILLIY KURASH – SPORT VA MA’NAVIYATNING BIRLIGI



O‘zbekiston respublikasi

mudofaa vazirligi axborot kommunikatsiya

texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Madaminov R.

Annotatsiya: Ayni paytda yuqori malakali sportchilar va kurashchilarni tayyorlash har bir murabbiyning sharaflı burchidir. Juhon sport maydonlarida xalqaro musobaqalarda O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarib yurishda yurtimiz polvonlarining xizmatlari beqiyos. Maqolada umumta’lim maktablarida milliy kurash bo‘yicha sport musobaqalarini tashkil etish haqida so‘z boradi..

Kalit so’zlar: sport turlari, milliy kurash, rivojlanish, tarbiya, kurash usullari

Abstract: At present, the task of preparing highly qualified athletes and wrestlers is the honorable duty of every coach. The merits of the wrestlers of our country in waving the flag of Uzbekistan at international competitions over world sports arenas are incomparable. The article refers to the organization of sports competitions in national wrestling in secondary schools.

Keywords: sport, national wrestling, development, education, wrestling techniques.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish O‘zbekistonning ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Milliy kurash, O‘zbekistonning madaniyati va an'analarining ajralmas qismi sifatida, yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Uch maqolada milliy kurashning ahamiyati, uning tarixi va

yo'nalishlari haqida so'z yuritiladi. Yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda

O'zbek xalqi o'zining milliy sport turlari bilan faxrlansa arziyi. Mamlakatimiz rahbariyatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda qilayotgan g'amxo'rliги natijasida milliy sport turlarimiz yanada rivojlanib ommaviylashib bormoqda.

O'zbek milliy kurash usullari qadimgi tarixga ega bo'lib, bugungi kunda bu kurash usullari Osiyonni barcha mamlakatlarida hamda bir qator Yevropa xalqlari orasida keng tarqalgan. Kurash usullari, ularni shakllanishi, turlari hamda moxir kurashchilar haqida Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yozib qoldirgan.

Milliy kurash turlari jismoniy barkamol, ma'naviy etuk inson qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy kurash turlari keng ommaviylashib rivojlanib kelmoqda. Respublikamiz sportchilarmiz esa Osiyo, Yevropa va jahon birinchiliklarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqdalar.

O'zbekiston milliy kurashi hisoblangan Buxorocha kurash usuli yetuk mutaxassislarni harakatlari ilmiy va uslubiy va amaliy izlanishlari natijasida Xalqaro o'zbek kurash usuliga aylandi. Bu bilan kurash yanada jozibali va zavqli ko'rinishga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda milliy kurash usullariga o'rta maktablar, kasb hunar kollejlari, oliy ta'lim tizimi jismoniy tarbiya jarayonida o'rgatilmoqda. Sport maktablarining kurash to'garaklarida mutaxassis sportchilar tayyorlashning



pedagogik jarayoni davr talabiga muvofiq takomillashib bormoqda. Malakali sportchi kurashchilar tayyorlash jarayoni ko‘p bosqichli va kurashchilardan muntazam jismoniy, texniktaktik va nazariy hamda ma’naviy iroda tayyorgarligi, mashaqqatli mexnat talab etadigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Istiqlol tufayli o‘zbek kurashi yer kurrasining barcha qit’alariga kirib borishi, barcha millat va elatlarning o‘zbek tilidagi **kurash, halol, to‘xta** va boshqa so‘zlarining jaranglashi O‘zbekiston Respublikasini, o‘zbek xalqini butun dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinganligining yaqqol na’munasidir. O‘zbek kurashining yoshlari tarbiyasidagi ahamiyatidan kelib chiqib, yoshlarmizning har tomonlama barkamol, sog‘lom, ma’naviy Yetuk insonlar qilib tarbiyalash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Ta’lim muassasalarida kurash mashg‘ulotlari darslari soatini ko‘paytirish.
2. O‘zbek kurashi bo‘yicha darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va kerakli adabiyotlarni chop ettirilishini jadallashtirish.
3. O‘zbek kurashi bo‘yicha yoshlari o‘rtasida viloyatlar tumanlarida musobaqalarni tashkil etishni ko‘paytirish.
4. O‘zbek milliy kurash turlari bo‘yicha yagona o‘quv trenirovka mashg‘ulotlari va musobaqalar o‘tkazish uchun yagona dastur, nizom va darsliklar, qo‘llanmalar yaratish.
5. O‘zbek milliy kurashi turlarini yoshlari va aholi o‘rtasida ommaviylashtirish uchun muntazam mintaqaviy va xalqaro musobaqalar tashkil etish, televideniya va radiodagi ko‘rsatuv, eshittirishlar olib borish, ommaviy matbuotda chiqishlar uyushtirish, gazeta va jurnallarda ilmiy-ommabop maqolalar nashr ettirib borish maqsadga muvofiq.

Kurash bo‘yicha oliy toifali murabbiylar, yuqori malakali sportchilar tayyorlash tizimi shakllanib kelmoqda. Kurash sporti bilan olimlarning ta’kidlashicha 10-12 yoshdan shug‘ullanish mumkin. Bu yoshda bolalarning ruhiy, axloqiy fazilatlari shakllangan xarakter ko‘rinishlari vujudga kelgan bo‘ladi. Ularning kurash

bo'yicha bellashish, malaka va ko'nikmalarini egallahda muhim rol o'ynaydi. Axloqiy fazilatlardan qo'rmaslik, botirlilik, mardlik, o'z imkoniyatlarini baholash, rahim-shavqat, izzat va hurmat, qo'rinqinchlarni enga olish qobiliyati va fazilatlari kurash sportida etakchi o'rinda tutadi. Shunga qaramay boshqa sport turlari kabi kurash ancha yosharib ketgan.



Bolalarning jismoniy qobiliyatları, shaxsiy qiziqishlari hamda ruhiy tayyorgarliklari va shaxsiy xarakterlarining xususiyatlariga muvofiq 6-7 yoshdan xam shug'ullanish mumkin. Bu yoshdagi bolalarning sport mashg'ulotlari, kurash sporti xarakatlarini egallahga hamda jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu yoshdagi kurashchilarni bellashish harakatlari, manikenlarni uloqtirishlar shakllantirilib va rivojlantiriladi. Kurashchilarning asosiy harakatlari uloqtirish mashqlarini egallahga qaratilgan bo'ladi.

Kurash mashg'uloti – yosh sportchilarni kurash turlariga xos bo'lgan mashqlar va harakatlarga o'rgatishga qaratilgan pedagogik jarayon bo'lib hisoblanadi. Kurash mashg'ulotining maqsadi yosh kurashchilarni yuqori malakali sportchi qilib tarbiyalash va kurash turlarida sportdag'i eng yuksak natijalarga erishish bilan birga ma'naviy etuk hamda jismonan barkamol inson qilib tarbiyalash hisoblanadi. Kurash mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilarning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy fazilatlarini rivojlantirish jarayonlari ham muhim vazifalar bo'lib belgilanadi.

XULOSA

Milliy kurash, yoshlarni jismonan barkamol, ma'naviy etuk insonlar qilib tarbiyalashda muhim vosita. Yoshlar bo'yicha kurashning o'quv jarayoni, axloqiy fazilatlarini nazorat qilishda, jismoniy xususiyatlarini yaxshilashda ahamiyatlidir. Kurash mashg'ulotlari, yosh sportchilarni kurash turlariga xos bo'lgan mashqlar va mashg'ulotlarga o'rgatishga tayyorgarlik ko'rish pedagogik jarayon bo'lib o'tadi. Mashg'ulotlarning maqsadi – yosh kurashchilarni yuqori malakali sportchi

qilib tarbiyalash va ma'naviy etuk insonlar sifatida qarabdir. Milliy kurash, O'zbekistonning madaniyati, tarixi va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ush sport turi, jismoniy jismoniy kuchni, balki ma'naviy barkamollikni ham tarbiyalaydi. Yoshlarni milliy kurashga jalb qilish, tekshirish sog'lom turmush tarzini ta'minlash va jismoniy tarbiyani kuchaytirish orqali amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish, O'zbekistonning sport imkoniyatlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

TAKLIFLAR:

1. Ta'lim darslarida kurash mashg'ulotlari soatini ko'paytirish.
2. O'zbek kurashi bo'yicha darslik va o'quv-uslubiy qo'llanma tayyorlash.
3. Yoshlar o'rtaсидаги viloyatlar tumanlarida musobaqalarni ko'paytirish.
4. O'zbek milliy madaniyatini oshirish uchun kurash va xalqaro musobaqalar tashkil etish.

Uch, milliy kurashning ahamiyatini va uning rivojlanishi yo'nalishlarini yoritadi. O'zbekistonning sport yutuqlari, milliy resurslarimizni saqlash va rivojlantirish muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ф.С. Фазлиддинов ВИДЫ СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫХ НАГРУЗОК В ФУТБОЛЕ- Web of Scientist: International Scientific Research..., 2022
2. FS Fazliddinov PSYCHOLOGICAL TRAINING OF ATHLETES- E-Conference Globe, 2021
3. Ф.С. Фазлиддинов ОСОБЕННОСТИ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН- Научный редактор, 2021
4. DZ Safarov, BX Xamroev, MM Mavlonov. Ispolzovanie pedagogicheskix texnologiy v protsesse obucheniya gimnastike - Voprosy nauki i obrazovaniya № 14 (139), 2021
5. Xamroyev B. X, Safarov D. Z. BELBOG 'LI KURASHCHINING

FUNKSIONAL QOBILIYATI OSHIRISH YO'LLARI. «SCIENTIFIC

PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 //// \\\ Volume: 1, ISSUE: 6

6. Xamroyev Behruz Xalimovich. DEVELOPING STUDENT'S READINESS TO USE ADAPTIVE PHYSICAL CULTURE. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences. Vol. 11 | No. 2 | February 2022

Xamroyev Behruz Xalimovich Talabalarining adaptiv jismoniy madaniyat vositalaridan foydalanish tayyorgarligini rivojlantirish."Boshlang'ich va mактабгача ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamlı texnologiyalar va xalqaro tajribalar". 13.05.2022

7. Sabirova Nasiba Rasulovna. THE MECHANISM OF IMPROVING THE PRIMARY TRAINING METHODS OF BASKETBALL SPORTS, TRAINING SKILLED BASKETBALL PLAYERS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/YMRTN> Published: Feb 28, 2022

8. SN Rasulovna. TOOLS FOR DEVELOPING SPECIAL PHYSICAL TRAINING AND PHYSICAL QUALITIES IN SPORTS GAMES. E-Conference Globe, 2021

9. SN Rasulovna - Web of Scientist: International Scientific Research ..., 2021. STAGES OF MODELING AND AGE INDICATORS IN THE OPTIMIZATION OF THE PROCESS OF SPORTS ACTIVITIES

10. The Importance of Three-Stage Model in Developing the Functional Status of Athletes. SN Rasulovna - International Journal on Economics, Finance and ..., 2021

11. Rasulovna S. N. THE MECHANISM OF IMPROVING THE PRIMARY TRAINING METHODS OF BASKETBALL SPORTS, TRAINING SKILLED BASKETBALL PLAYERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1085-1091.

12. Abdullaev M. J. Fizkulturno-ozdorovitelnye podkhody v protsesse fizicheskogo vospitaniya studentov vuzov // Sistema menedjmenta kachestva v vuze: zdorove,

obrazovannost, konkurentosposobnost. Sb. nauch. tr. VII Mejdunar. nauch.-practice. konf. - 2018. - S. 10-14.

13. Abdullaev M. J. O nekotoryx osobennostyax kinematiki metaniya diska s mesta // Sistema menedjmenta kachestva v vuze: zdorove, obrazovannost, konkurentosposobnost. Sb. nauch. tr. VII Mejdunar. nauch.-practice. konf. - 2018. - S. 7-10.

14. Abdullaev M. J. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. - 2020. - T. 8. - №. 11.

15. Национальные переживания, связанные с ходом спортивной борьбы НМ Мухитдинова, МЗ Джураева Вестник интегративной психологии, 49- 50

16. Healthy lifestyle in perfect generation's upbrining МЗ Джураева Scientific researches for development future, 75-77

Xarakteristika emotsionalno-volevoy gotovnosti lichnosti k sportivnoy deyatelnosti